Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellash asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bojxona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	



UO'K:311.14

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING RIVOJLANISHINI IQTISODIY TAHLILI

Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0002-9987-3225
"University of Economics and Pedagogy" NOTM
"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti
a.aysachev_89@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy-statistik yondashuv asosida tahlil qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda statistika, hisob-kitob va hisobot jarayonlarini tahlil qilish orqali dehqonchilik, chorvachilik va boshqa agrar yo'nalishlarda yuz berayotgan o'zgarishlar o'rganildi. Fermer xo'jaliklarida statistik guruhlash, ekspert baholash va statistik sintez metodlari qo'llanildi. Natijalar O'zbekiston YaIM tarkibida agrar sektorning salmog'i, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va ularning o'zgarish dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Xulosa sifatida, agrar tarmoqni yanada rivojlantirish uchun statistik tahlil natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, fermer xo'jaliklari, statistik tahlil, ekspert baholash, iqtisodiy ko'rsatkichlar, YaIM, agrar sektor.

Abstract: This article provides an economic and statistical analysis of the development of the agricultural sector in the Republic of Uzbekistan. It explores accounting, reporting, and analytical practices in agriculture, particularly among farming enterprises. The study employs statistical grouping, expert assessment, and synthesis methods. The findings highlight the share of agriculture in GDP, key agricultural production indicators, and their dynamics. The paper concludes that accurate statistical analysis is essential for effective decision-making in managing agricultural development.

Key words: agriculture, crop production, animal husbandry, farming enterprises, GDP, statistical analysis, expert evaluation, accounting, agricultural sector.

Аннотация: В статье представлен экономико-статистический анализ развития сельскохозяйственной отрасли в Республике Узбекистан. Рассмотрены вопросы ведения учета, отчетности и анализа в сельском хозяйстве, в том числе в фермерских хозяйствах. Применялись методы статистической группировки, экспертной оценки и синтеза. В результате проведенного анализа были определены доля аграрного сектора в ВВП, основные показатели сельхозпроизводства и их динамика. В заключение обоснована необходимость использования статистических данных для принятия эффективных управленческих решений в аграрной сфере.

Ключевые слова: сельское хозяйство, земледелие, животноводство, фермерские хозяйства, статистический анализ, ВВП, аграрный сектор, экспертная оценка, учет и отчетность.

KIRISH

Mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida eng dolzarb vazifalardan biri – qisqa muddatda iqtisodiyotda erkin raqobat muhitini shakllantirish va xususiy sektorni jadallik bilan rivojlantirish orqali uning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushini 65 foizga yetkazishdir. Ushbu maqsadga erishish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish va farovonlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qishloq joylarda mulkdorlar qatlaminig shakllanishi va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning samarali hal etilishi uchun qulay sharoitlar vujudga keladi. Ayniqsa, agrar sohaning taraqqiyoti mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois, qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish jarayonlarini iqtisodiy-statistik tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.



MAZVUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda uning samaradorligini oshirishga doir nazariy va uslubiy masalalar, shuningdek, fermer xo'jaliklari faoliyatini kompleks o'rganish masalalari bo'yicha MDH mamlakatlari olimlari tomonidan muhim tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni bozorlarda realizatsiya qilish va sotish tizimini rivojlantirish muammolari L.V. Agarkova, I.A. Baranov [1], N.A. Popov [2], A.V. Afanasyeva [3], M.A. Solomaxin va N.I. Grekov kabi olimlarning ilmiy ishlanmalarida atroflicha yoritilgan. Ularning tadqiqotlari agrar sektorning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi transformatsiya jarayonlari, resurslardan foydalanish samaradorligi va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi muvozanat muammolariga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston sharoitida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Qishloq xo'jaligi – aholiga oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat va yengil sanoat uchun xom ashyo yetkazib beruvchi, shuningdek, davlatning oziq-ovqat suverenitetini ta'minlovchi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biridir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar tarkibiga qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari (yuridik va yuridik bo'lmagan shaxslar), shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, ammo agrar sohadan tashqarida faoliyat yurituvchi boshqa korxonalar ham kiradi. Qishloq xo'jaligidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich – yalpi ichki mahsulot (YAIM) bo'lib, u milliy hisoblar tizimida umumiy chiqarish hajmi bilan oraliq iste'mol orasidagi farq sifatida belgilanadi. Tadqiqot doirasida ushbu ko'rsatkichga bevosita ta'sir qiluvchi statistika va iqtisodiy tahlil uslublaridan foydalanilgan. Jumladan, qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti yil davomida o'simlikchilik va chorvachilik sohalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qiymatini o'z ichiga oladi va bu qiymatlar amal qilayotgan narxlar asosida aniqlanadi. Yalpi ishlab chiqarish hajmi esa fermer va dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi korxonalari hamda ushbu sohaga xizmat ko'rsatuvchi boshqa korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini qamrab oladi. Oraliq iste'mol – bu hisobot davrida ishlab chiqarishda iste'mol qilingan, biroq asosiy kapital iste'moli hisobga olinmagan tovar va xizmatlar qiymatidir. Shu asosda hisoblangan qishloq xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati yalpi ishlab chiqarish bilan oraliq iste'mol orasidagi farq sifatida aniqlanadi. Fermer xo'jaligi – O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq (26.08.2004 y. № 662-I), yer uchastkalarini ijaraga olib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tovar ko'rinishida ishlab chiqaruvchi mustaqil subyektdir. Dehqon xo'jaligi – oilaviy, kichik hajmdagi xo'jalik bo'lib, u yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holda oila a'zolarining mehnatiga asoslanadi. Bu xo'jaliklar yerda ishlab chiqarish faoliyatini yuritadi va meros qilib olinadigan xususiy yer uchastkalari asosida faoliyat olib boradi. Dehqon xo'jaliklariga shaxsiy tomorqa xo'jaliklari, bog'dorchilik, uzumchilik, mavsumiy ekinlar yetishtirish va dacha yer uchastkalari kiradi. Qishloq xo'jaligi korxonalari – yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, yer va boshqa moddiy aktivlarga egalik qiladi hamda o'simlikchilik va hayvonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy qiymati dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari qiymatidan tashkil topadi. Dehqonchilik mahsulotlari hajmiga hisobot davrida yetishtirilgan donli ekinlar, texnik ekinlar, kartoshka, sabzavot, poliz mahsulotlari kabi xom ashyolarning qiymati, hosil berish yoshiga yetmagan ko'p yillik o'simliklar yetishtirish xarajatlari hamda tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati o'zgarishi kiradi. Chorvachilik mahsulotlari tarkibiga esa qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalardan olinadigan mahsulotlar (sut, tuxum, jun, asalarichilik mahsulotlari, baliqchilik va boshqalar), shuningdek, chorva hayvonlarining tug'ilishi, o'sishi, vazn yig'ishi bilan bog'liq qiymatlar kiradi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotiga chorva mollari va parrandalarni so'yishdan olingan mahsulotlar (go'sht, teri), qayta ishlangan tayyor mahsulotlar (un, yog' va boshqa xom ashyolar), yog'och mahsulotlarini yetishtirish qiymati, baliqchilik va ovchilikdan olingan mahsulotlar, o'simliklardan yig'ilgan mevalar, yong'oqlar, dorivor o'simliklar va boshqa tabiiy ne'matlar qiymati kiritilmaydi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti – bu qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti rivojlanishini baholovchi, umumlashtiruvchi jamlama ko'rsatkich bo'lib, muayyan davrda amalga oshirilgan ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich orqali qishloq xo'jaligi subyektlarining iqtisodiy samaradorligi va sektorlar o'rtasidagi nisbatlar tahlil qilinadi. Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, 1991-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi qishloq xo'jaligi korxonalariga to'g'ri kelib, ularning ulushi 69,7 foizni tashkil etgan. 2002-yilda bu ko'rsatkich 27,8 foizga tushgan, 2010-yilda esa 2,1 foizgacha kamaygan. Aksincha, dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi mahsulotdagi ulushi izchil o'sib borgan. Xususan, 1991-yilda dehqon xo'jaliklari ulushi 30,2 foiz, fermer xo'jaliklari ulushi esa 0,1 foiz bo'lgan bo'lsa, 2010-yilda bu ulushlar mos ravishda 62,9 foiz va 35,0 foizni tashkil etgan. 2020-yilga kelib, dehqon xo'jaliklarining ulushi 66,7 foizga,




fermer xo'jaliklariniki esa 5,5 foizga yetgan. Ushbu dinamik o'zgarishlar 2004–2007-yillarda fermer xo'jaliklarini shakllantirish jarayonining kuchaygani, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan past rentabellikka ega bo'lgan yirik qishloq xo'jaligi korxonalari va shirkat xo'jaliklarini bosqichma-bosqich optimallashtirish orqali amalga oshirilgani bilan izohlanadi (1-rasm).



1-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda xo'jalik subyektlarining toifalari bo'yicha salmog'i, %.

Natijada, qishloq xo'jaligi tarmog'i tuzilmasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi va mamlakat qishloq xo'jaligi tizimida tamomila yangi institutsional tuzilma shakllandi. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlari haqidagi jamlama ma'lumotlar ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishlari – dehqonchilik va chorvachilik, shuningdek, har bir yo'nalish ichida o'simlik guruhlar va chorva mahsulotlari turlarining iqtisodiy ahamiyatini baholash imkonini beradi. Grafik ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilda qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 17,5 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2000-yildagi 30,1 foizdan ancha pastdir. 2005-yilda esa bu ulush 26,3 foizga teng bo'lgan. Qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotdagi ulushi qisqarishiga qaramay, 2010-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sur'atlari yuqori bo'lgan. Xususan, 2009-yilga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 foizni tashkil etgan. 2000-yilda esa bu ko'rsatkich 1999-yilga nisbatan 103,1 foizni tashkil qilgan. Shu bilan birga, 2010-yilda qishloq xo'jaligiga jalb qilingan investitsiyalar ulushi ham qisqargan bo'lib, 2000-yildagi 5,7 foizga nisbatan 3,1 foizni tashkil etgan. 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 4,8 foizga teng bo'lgan. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarini baholashda fizik hajm indekslari (o'sish sur'atlari) va deflyator indekslari hisoblab chiqiladi va bu orqali haqiqiy hamda taqqoslanadigan narxlarda iqtisodiy tahlil amalga oshiriladi (2-rasm).



2-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning YAIM va investitsiyadagi salmog'i, % [7]



Faol tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olish maqsadida taqqoslash uchun baza sifatida odatda o'tgan yilning tegishli davri qo'llaniladi. Bu usul yil davomida yuz bergan o'zgarishlarni aniq baholash imkonini beradi va ishlab chiqarish jarayonlarining real sur'atlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarini joriy narxlarda hisoblash har bir xo'jalik kategoriyasi bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy qiymatini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu hisoblash hisobot davrida natura shaklida ishlab chiqarilgan asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmiga qayta baholashni talab etadi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining muhim xususiyatlaridan biri uning yillik baholanishidir. Bu jarayonda xo'jalik kategoriyalari kesimida ishlab chiqarish hajmlari, mahsulot va xizmatlar iste'moli, jamg'arish, shuningdek daromadlarning shakllanishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar hisobga olinadi.

Taqqoslama narxlardagi yalpi mahsulot ko'rsatkichi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining fizik hajmi dinamikasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkich yordamida turli davrlardagi real o'sish sur'atlari aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari fizik hajmi indeksi hisobot davridagi ishlab chiqarish hajmlarini bazis davr bilan taqqoslash orqali mahsulotlar o'zgarish dinamikasini ko'rsatadi. Natijada iqtisodiy faollik va ishlab chiqarish samaradorligi bo'yicha obyektiv baho olish imkoniyati yaratiladi.

Taqqoslama narxlarda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini hisoblashda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining fizik hajmning umumiy indeksidan foydalaniladi va bu hisob-kitob Laspeyres formulasi asosida amalga oshiriladi.

$$Y_q = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$$

bu yerda: q_1 – hisobot davridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hajmi;

q_0 - bazis davridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi;

p_0 - bazis davridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxi

1-jadval. Mamlakat YAIMda iqtisodiyot tarmoqlarining ulushi, %.

Iqtisodiyot tarmoqlari	2000	2010	2015	2020	2021	2022	2023
Sanoat (qurilish bilan birga)	14,2	24	30	33,5	33,9	33,4	32,3
Qishloq xo'jaligi	30,1	14,5	16,7	26,8	26,5	24,9	24,3
Tansport va aloqa	7,7	12,4	10,1	7,0	7,2	7,0	5,6
Xizmatlar	37	49	44,5	39,7	39,6	41,6	43,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2000-yilda sanoat (qurilish bilan birga)ning YAIMdagi ulushi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 24,0 foizga, 2023-yilda esa 32,3 foizga yetgan. Aksincha, transport va aloqa sohasining ulushi 7,7 foizdan 5,6 foizgacha kamaygan. Xizmatlar sohasi esa 2000-yildagi 37,0 foizdan 2023-yilda 43,4 foizgacha ko'tarilgan. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining ulushi 30,1 foizdan 24,3 foizgacha qisqargan bo'lib, bu o'zgarishlar sanoat tarmog'idagi yuqori qo'shilgan qiymat mahsulotlari ulushining ortishi bilan izohlanadi (1-jadval).

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti yalpi aylanma usuli bilan aniqlanadi. Ya'ni, hisobot davrida ishlab chiqarilgan barcha agrosanoat mahsulotlarining umumiy qiymati, shu jumladan korxona ichida foydalanilgan mahsulotlar (don, urug'lik, chorva ozuqasi va boshqalar) ham inobatga olinadi.

Biroq, qishloq xo'jaligi korxonalarining qishloq xo'jaligiga aloqador bo'lmagan faoliyati (masalan, elektr energiyasi ishlab chiqarish, mahsulotlarni qayta ishlash, qurilish va boshqa xizmatlar) yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga kiritilmaydi.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidan yalpi ishlab chiqarishga o'tishda xo'jaliklar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar qiymati hisobga olinadi. Ular orasida yerlarni yaxshilash, tuproqni agrotexnik ishlov berish, zararkunandalarga qarshi kurashish, zootexnik va veterinariya xizmatlari, suv xo'jaligi tashkilotlarining xizmatlari mavjud.

Bu xizmatlar va tovarlar oraliq iste'mol sifatida haridor narxida baholanadi. Haridor narxi tovar yoki xizmatning asosiy bahosi, savdo-transport ustamasi, mahsulotlarga (QQSdan tashqari) soliqlar va bojlar, shuningdek, subsidiyalarni chegirib hisoblash orqali belgilanadi.



Qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, hamda boshqa ishlab chiqaruvchilar bo'yicha respublika miqyosida statistika ishlari davlat hisoboti shakllari asosida amalga oshiriladi. Bu ma'lumotlar qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotini haqiqiy va taqqoslama narxlarda baholash hamda fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati)ni hisoblash imkonini beradi.

Faol tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olishda taqqoslash uchun baza sifatida o'tgan yilning tegishli davri qo'llaniladi. Bu yondashuv orqali o'zgarishlar dinamikasini obyektiv baholash mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning qishloq xo'jaligi xodimlariga yo'llagan tabrigida bu boradagi yutuqlar sarhisob qilinar ekan: "...biz keyingi yildan boshlab paxta yetishtirishni to'liq 100 foiz klaster usuliga o'tkazishga qaror qildik. Shu bilan birga, g'allachilik, meva-sabzavotchilik, parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va pillachilik klasterlarini tashkil qilish ishlarini izchil davom ettiramiz", degan fikrlar bilan soha mutasaddilariga muhim vazifalar yuklatildi.

Klaster tizimi amalda ijobiy natijalar bergach, mamlakatimiz bo'ylab paxta, to'qimachilik, g'allachilik va meva-sabzavotchilik klasterlari tashkil qilindi. 2019-yilda paxta yetishtirishni kamida 52 foizga yetkazish maqsadida 48 ta paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. O'sha yili paxta hosilining 73 foizi ushbu klasterlar hissasiga to'g'ri kelgan. Klaster yo'nalishi bugungi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun istiqbolli model sifatida qaralmoqda.

Klaster tizimi bu – xom-ashyodan boshlab, tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan to'liq ishlab chiqarish va ta'minot zanjirini qamrab olgan tizimdir. Shu nuqtayi nazardan, davlat rahbari tomonidan ushbu modelga keng e'tibor qaratilib, g'alla va meva-sabzavot klasterlarini har tomonlama rivojlantirish, kredit tizimini soddalashtirish, subsidiyalar ajratish, yer ajratish tartiblarini takomillashtirish kabi vazifalar ilgari surilgan [6].

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar amalda samarali natija bermoqda. Bunda mahsulot yetishtirish va uni realizatsiya qilishdagi bozor narxlari, kreditlar muddati va shartlari, soliq stavkalari, moddiy-texnik ta'minotning barqarorligi asosiy omillar sifatida e'tiborga olinadi. Makroiqtisodiy barqarorlashtiruvchi siyosat ushbu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

O'zgaruvchan iqlim va tabiiy sharoitlar fonida qishloq xo'jaligi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish orqali tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishdir.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning konsentratsiya darajasi yer resurslari, ishlab chiqarish vositalari, mehnat resurslari, ishlab chiqarish hajmi va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik darajasi bilan tavsiflanadi. Konsentratsiyani oshirish fermer xo'jaliklarida ixtisoslashtirish va kombinatsiyalash asosida amalga oshirilmoqda.

Shu asosda fermer xo'jaliklarining hududiy rivojlanishi uchun konseptual qoidalarni ishlab chiqish zarur bo'lib, bu yer resurslaridan maqbul foydalanish, o'rta va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari belgilash, ishlab chiqarish va sotuv prognozlarini shakllantirish imkonini beradi. Bunda tanlov mezonlari sifatida fermer xo'jaligining daromad va foyda olish salohiyati, uning aholi farovonligiga ta'siri asosiy o'rin tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizning umumjahon xo'jalik tizimiga bosqichma-bosqich va samarali integratsiyalashuvi agrar siyosatning strategiyasi va taktikasi oqilona belgilanishiga bevosita bog'liqdir. Aynan ushbu omil qishloq xo'jaligida raqobatbardosh tizimni shakllantirish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, agrar sektorning barqarorligi va samaradorligi, yangi iqtisodiy munosabatlarning joriy etilishi mamlakat kelajagi va uning iqtisodiy qudratini belgilovchi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Bugungi kunda O'zbekistonda qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Qishloq hududlarida ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish, fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari izchil amalga oshirilmoqda. Fermer xo'jaliklari faoliyatining samaradorligini oshirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, paxta xom-ashyosini yetishtirish, qayta ishlash, "ta'lim – innovatsion tadqiqotlar – sotish" zanjiri orqali klaster tizimiga integratsiyalash borasidagi ishlar keng miqyosda yo'lga qo'yilgan.

Bu esa, o'z navbatida, nafaqat agrar sektorga, balki butun xalq xo'jaligi tarmoqlarining klaster asosidagi tashkil etilishi zarurligini ko'rsatadi. Oxirgi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligida xom ashyo yetishtirish hajmi bilan birga, tayyor mahsulotlar eksportini ham oshirish borasida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Ushbu yondashuv eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko'paytirishga xizmat qilmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yuqori samaradorlikni ta'minlash uchun hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish va yer resurslaridan foydalanishda ilmiy asoslangan yondashuvni keng joriy etish zarur.



Klaster tizimining samaradorligini oshirish maqsadida fermer xo'jaliklari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va qayta ishlovchi korxonalar o'rtasidagi uzviy integratsiyani kuchaytirish lozim.

Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirish, kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish va ularni qaytarish shartlarini yumshatish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Ichki va tashqi bozorlar uchun eksportbop tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos sifat tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligida monitoring, rejalashtirish, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha maxsus platformalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Баранов И.А. Совершенствование коммерческой работы торговых и заготовительных организаций потребительской кооперации. Автореф. дисс. д-ра экон. наук. – М.: РГБ, 2003. – С. 39.
2. Попов Н.А. Экономика сельского хозяйства. – М.: Дело и сервис, 2005. – С. 56.
3. Афанасьева А.В. Статистическая оценка динамики производства сельскохозяйственной продукции в системе государственного регулирования продовольственного рынка. Автореф. дисс. на соиск. канд. экон. наук. – Самара, 2008. – С. 26.
4. Soatov N.M. Statistika. Darslik. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2003. – B. 743.
5. Abdullayev Yo.A. Statistika nazariyasi. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2002. – B. 592.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil, № 271–272 (7229–7230).
7. www.stat.uz – rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
8. O'rinov A.A. Qishloq xo'jaligi tarmog'i O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri. International scientific-practical conference Actual Issues of Agricultural Development: Problems and Solutions, June 6–7, 2023.
9. Айсачев, А. (2021). Статистический анализ экономического развития сельского хозяйства на региональном уровне. Экономика и инновационные технологии, (4), 197–208. Извлечено от: https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11938
10. Айсачев Абдулфотих Абдулфаизович. (2024). ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНАЛЬНЫХ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РАЗРЕЗЕ ТЕРРИТОРИИ РЕГИОНА. Web of Discoveries: Журнал анализа и изобретений, 2 (6), 119–127. Получено с: <https://webofjournals.com/index.php/3/article/view/1618>
11. A.A. Aysachev, M. Xonboboyeva. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda iqtisodiy samaradorlikka erishishning ba'zi masalalari. (2024). International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 72–77. <https://econfseries.com/index.php/5/article/view/77>
12. Aholi migratsiyasi: statistika va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri. (2024). Xalqaro konferensiya – iqtisodiyot, moliya, bank ishi va menejment, 124–130. <https://econfseries.com/index.php/6/article/view/139>
13. Xolmirzayev, F. (2025). Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili. In Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss3-pp252-258>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>